


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi

60211000 - San’atshunoslik (xoreografiya bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023 yil « 7 » _____ 08 _____ dagi 3441 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		
1.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari	5
1.2.3.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari	5
2.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikasiya.....	8
2.3.2.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.3.	60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1. 60211000 - *San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalvriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. *60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60211000 - *San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalvriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. *60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. *60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) sohasidagi bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, o'zbek va jahon xoreografiya san'ati tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, o'zbek milliy raqs san'atini o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va targ'ib etish, uning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, shu jumladan, O'zbekistonda balet san'atini rivojlanishini o'rganish, xoreografiya bo'yicha ilmiy manbalar bazasini

yaratishda ishtirok etish, xoreografiya sohasida ilmiy loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- xoreografiya san'atiga bag'ishlangan hujjatli film ssenariylari, teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida raqs va balet san'atiga bag'ishlangan maqolalar, ijodiy portretlar va taqrizlar yaratish masalalari bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:

- ta'lim jarayonida mos keladigan o'rta - maxsus madaniyat va san'at o'quv yurtlarining o'quv tarbiya jarayoni, ilmiy-tadqiqot institutlar, radio, televideniye, gazeta va jurnal redaksiyalari, ma'naviy - ma'rifiy markazlar, madaniyat va san'at muassasalari.

1.2.3. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy - ijodiy;
- ilmiy - tadqiqot,
- ommaviy axborot vositalari sohasidagi faoliyat;
- ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyat;
- ishlab chiqarish faoliyati.

1.2.4. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchilari ko'yidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy - ijodiy va ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- kasbiy faoliyatda madaniyat va san'at sohasidagi o'rta maxsus, professional ta'lim tizimining mos ta'lim muassasalarida ilmiy - ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish;

- kasbiy faoliyatda o'tkazilayotgan ilmiy - tadqiqotlar asosida san'atshunoslik sohasiga doir yangi metodlarni tavsiya etish;

- san'atshunoslik sohasiga doir mavjud metodikalar asosida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- madaniyat va san'at muassasalari va ijodiy birlashmalari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish, ijodiy xoreografiya jamoalarini (to'garaklar, studiyalar, balet teatrlari, raqs ansambllari, ashula va raqs ansambllari) tuzish va rahbarlik qilish;

Ommaviy axborot vositalari sohasidagi faoliyatida:

- Madaniyat va san'at sohasidagi davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarida – gazeta, jurnal, radio, televideniye sohasida hamda internet-saytlarda faoliyat yuritish, madaniyat va san'at masalalarini targ'ib etish, san'at nazariyasi va tarixiga oid san'at jurnalistikasi sohasida faoliyat olib borish;

Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyatida:

- zamonaviy davr talablariga javob beradigan konsert dasturlarini yaratishda ishtirok etish, xoreografik repertuarni xronologik shakllantirishda professional

maslahatlarini berish, xoreografiya jamoalarini (to'garaklar, studiyalar, balet teatrlari, bolalar ashula va raqs ansambllari) tuzish.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lish;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyalariga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lishi;

- Axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- madaniyat va san'at muassasalari va tashkilotlarida, barkamol avlod markazlarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida va madaniyat kollejlari faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, tog'ri xulosa chiqarish madaniyatini shakllantirish;

- kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar va muammoli vaziyatlar yechimini topish usullarini tanlay olishda ijodiy jihatdan yondashish;

- kasbiy malaka va ko'nikmani hamda shaxsiy kamolotni takomillashtirib borish;

- jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va ijrochilar bilan samimiy, xushmuomilalik bilan muloqot qilish;

- ta'lim olgan va ta'lim berayotgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish va undan amaliyotda samarali foydalanish;

- kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish;

- kasbga oid hujjatlar bilan ishlash;

- kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashi;

- san'at nazariyasi va tarixi sohasiga oid ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni

bosma va elektron ko‘rinishida ommaviy axborot vositalarida chop etish, shuningdek, maqolalarni tahrir qilishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta‘limni davom ettirishi;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘lim olishi;

- xoreografiya san‘ati sohasida intellektual, madaniy, ma‘naviy, jismoniy va kasbiy o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi va bu qobiliyatni amalda qo‘llay bilishi;

- fikrlash madaniyatini egallagan bo‘lishi, og‘zaki va yozma nutqini argumentlangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartirishi;

- kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, san‘at sohasiga doir nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi;

- so‘zlashuvdan kam bo‘lmagan darajada bir xorijiy tilni egallagan bo‘lishi kerak.

- bilim va mahoratdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish sifatini ta‘minlash va ularni boshqarishda qo‘llash;

- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llagan holda ijodiy ishlarni olib borish;

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish;

- xoreografiya san‘ati sohasida intellektual, madaniy, ma‘naviy, ijodiy, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish borasidagi *bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarning egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirish, malakaviy amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga hizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: San'atshunos, lektor, tanqidchi.

2.3.2. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

2.3.3. 60211000 - San'atshunoslik (xoreografiya bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5340	178	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	O'TSQ1106	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.04	F1304	Falsafa	120	4	3
1.05	XRT13408	Xorijiy til	240	8	3,4
1.06	XSATF1204	Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish	120	4	2
1.07	MOST12303	Markaziy Osiyo san'ati tarixi	240	8	2,3
1.08	UPP13408	Umumiy pedagogika va psixologiya	240	8	3,4
1.09	JO'A16706	Jahon va o'zbek adabiyoti	180	6	6,7
1.10	MEN.MT112308	Musiqaning elementar nazariyasi. Musiqa tarixi	240	8	1,2,3
1.11	JO'XST11234014	Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi	420	14	1,2,3,4
1.12	XI1704	Xalq ijodiyoti	120	4	7
1.13	SK.SN11234012	San'atshunoslikka kirish. San'at nazariyasi	360	12	1,2,3,4

1.14	TT456012	Teatr tarixi	360	12	4,5,6
1.15	SLT15608	Senografiya va liboslar tarixi	240	8	5,6
1.16	BTT1704	Balet tanqidchiligi tarixi	120	4	7
1.17	STA15606	Stilistika va tahrir asoslari	180	6	5,6
1.18	MCHO'(R) 1204	Musiqa cholg'ularini o'rganish (rubob)	120	4	1,2
1.19	XBSM118 016	Xoreografiya bo'yicha san'atshunoslik mutaxassisligi	480	16	1,2,3,4,5,6,7, 8
1.20	JA156708	Jurnalistika asoslari	240	8	5,6,7
1.21	NS1706	Notiqlik san'ati	180	6	7
1.22	RDA15670 8	Raqsh dramaturgiyasi asoslari	240	8	5,6,7
1.23	RA112340 16	Raqsh alifbosi	480	16	1,2,3,4
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	5,6,7,8
		Jami	6540	218	
	MA	Malakaviy amaliyot	480	16	2,4,6,8
	YDA	Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6	8
		Jami	660		
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55


OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Badiiy tahlil, badiiy tanqid, ilmiy tadqiqot, janr, klassik raqs, xalq-sahna raqsi, zamonaviy-estrada raqsi, o'zbek raqsi, klassik-duet raqsi, tarixiy-maishiy raqsi, baletmeysterlik san'ati, rejissura, musiqa, fortepiano, rubob, ijodiy va kasbiy faoliyat turlari, o'qitish, xoreografiya san'atini o'rganishning mukammalligi, konsert dasturi, xoreografiya va gumanitar fanlarni o'rganish, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), o'qib-o'rganish natijalari, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat atestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Rektor  **SH.Toxtasimov**
2023 yil " " "
M.O. _____


KELISHILGAN:


**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh.Yakubov**
2023 yil _____
M.O. _____



**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm
vazirligi Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish
boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i  **N.K.Kasimov**
2023 yil _____
M.O. _____




O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  **E.Shermanov**
2023 yil _____
M.O. _____



O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor  **K.Urinbayev**
2023 yil " " "
M.O. _____



O'zbekiston davlat fidarmoniyasi

Bosh direktor  **A.Tajiboyev**
2023 yil _____
M.O. _____



**O'zR FA San'atshunoslik
instituti**

Direktor  **Sh.Pidayev**
2023 yil _____
M.O. _____



O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 60211000 - San‘atshunoslik (xoreografiya bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Sh.Toxtasimov, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.v.b E.Shermanov hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayevlar birgalikda O‘zDXAda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211000 - San‘atshunoslik (xoreografiya bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsia etish mumkin.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.v.b



E.Shermanov

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori



K.Urinbayev

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori



Sh.Toxtasimov

